



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRINING
BUYRUG‘I**

2021-yil 10-dekabr 516-son

Toshkent sh.

**Byudjet jarayonining ochiqligini ta‘minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda
ma‘lumotlarni joylashtirishni tartibga solish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining “Byudjet jarayonining ochiqligini ta‘minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma‘lumotlarni joylashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2021-yil 27-apreldagi 26-son [O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 7-mayda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3299] buyrug‘ining ijrosini ta‘minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Byudjet jarayonining ochiqligini ta‘minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma‘lumotlarni joylashtirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Byudjet hisobi metodologiyasi va buxgalteriya hisoboti tahlili boshqarmasi (K.Artikov), Iqtisodiyot boshqarmasi (M.Xamrayev), Investitsiya loyihalarini amalga oshirish boshqarmasi (F.Dalimov) rasmiy veb-saytiga joylashtiriladigan ochiq ma‘lumotlarni har chorak yakunlari bo‘yicha keyingi chorak birinchi oyining 25 - sanasiga qadar taqdim etib borsin.
3. Axborot xizmati (Z.Amirqulov), Ta‘lim muassasalarida elektron ta‘limni joriy etish markazi (A.Abdullayev) vazirlik markaziy apparati ma‘lumotlarining rasmiy veb-saytga joylashtirilishi bo‘yicha shaxsan mas‘ul ekanligi belgilansin.
4. Ushbu buyruq ijrosi nazorati vazirning iqtisodiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari S.Buzrukxonov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



A.Toshkulov